

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI

Yusupov Umdjon

O‘zbekiston milliy universiteti jizzax filiali assistent o‘qituvchi

Adilova Madina

O‘zbekiston milliy universiteti jizzax filiali talabasi

Annotatsiya:

Ushbu tesizda maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini- o‘zi anglashda oilananing muhim ahamiyat kasb etishi, oilada bolaning psixologik o‘sishi uchun oiladagi ota-ona va oilaviy muhitning bolalar ongiga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltrilgan.

Kalit so‘zlar: oila, psixologik muhit, sotsial ta‘sirlar, psixologik axborot oqimi,

Atrof muhitni idrok qilish, destruktiv ta‘sirlar, er-xotin, farzand.

Biz bugunga qadar o‘tkazilgan tadqiqotlar hamda olimlarning ishlarini o‘rganib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zini-o‘zi anglash jarayoni ijtimoiy muhit bilan uyg‘un holda shakllanar ekan. Ushbu muhitda eng muhim mikromuhit bu-oila hisoblanadi. Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini bel- gilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Negaki bolaning ilk ko‘zini ochib idrok qiladigan, ilk yaqinlari bilan hissiy va emotsional yaqinlikda bo‘ladigan borliqning kichik bir bo‘lagi sifatida oila eng muhim rol o‘ynaydi.

Oksana Kovynevaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy maqolasida keltirilganidek bolalarda uchrayotgan 30-40% surunkali kasalliklarning asosiy sabablaridan biri sifatida psixogen ta‘sirni hozirgi zamonaviy tibbiyot bilimiga asoslanib keltirib o‘tishganini qayd etgan. O‘z maqolasida psixik salomatlikning asosiy ko‘rsatgichlari sifatida:

- O‘zining “Men”ini har tomonlama qabul qilish;
- Ko‘zgu kabi o‘zini tanib olish sifatiga ega bo‘lish;
- O‘zini-o‘zi o‘zgartirishga intilish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish hamda o‘zini idrok eta olish deb qayd etadi.

Psixologik buzilishlar tog‘ridan-to‘g‘ri aqliy salomatlik va o‘qishdagi buzilishlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazishini ko‘rsatadi. Bola tug‘ilgandan undagi o‘zini –o‘zi anglash jarayonida oila a‘zolarining hissiy emotsional yaqin bo‘lgan shaxslari ijtimoiy kirishimlilikni ta‘minlaydi. Dastlab ona bolaning asosiy biologik ehtiyojini qondirishi natijasida bola ona bilan bog‘lanish munosabatining paydo bo‘lishi va bu bog‘lanishning hech qachon uzilmasligini H. Anning ilmiy ishida keltirib o‘tilgan. Bolada ona bilan bog‘liqlik onaning bolani biologik ehtiyojini

doimiy qondirib borishi natijasida o'zaro bog'liqlik yuzaga kelishini aytib o'tishgan. Bu bog'liqlik bolada himoya vazifasini bajaruvchi asosga aylanadi. Ya'ni onaning bola bilan ushbu bog'liqligini buzmasa ushbu himoya bosqichi yo'qolmaydi. Chaqaloqning parvarish qiluvchi bilan bog'liq sifati parvarish qiluvchining bola tomonidan uzatilgan signallarning qabul qilinishi hamda javob berishi belgilab berishi qayd etilgan. Bolaning signallarni biladigan, uni tez payqaydigan, to'g'ri javob beradigan sezgir parvarish qiluvchiligi qayd etiladi. Shuningdek go'dakka yaxshi parvarish qiluvchi javobning berilishi bolada xavfsizlik hissini yuzaga keltiradi. Ushbu muallifning ishlarida qayd etilgan xavfsizlik hissi bevosita bolani yangi muhitga va shaxslar bilan muloqatga kirishishiga yordam beradi bu esa bolaning kognitiv hamda ijtimoiy rivojlanishi bilan bir qatorda o'zlikning shakllanib borishi bilan kechadi. Hissiy jihatdan sog'lom bola shakllanishi bolaning o'zaro har ikkala ota-onaning o'zaro birdek yaqin bog'liqligi bilan kechadi. Ayrim manbaalarda hatto ajrashgan oiladagi farzandlarning hissiy emotsional holati o'zini havfsiz his qilmaganligi yetarli e'tiborning mavjud emasligi bilan bog'liqligi aytiladi. Bolalikda ikkisidan birining yo'qligi bola ruhiy holatiga keskin ta'sir qilishi mumkin. Bundan tashqari oila qurishda ota-onaning oilaviy hayotga tayyorligi, bo'lajak farzandni dunyoga keltirish hamda u bilan doimiy munosabatda bo'lish uchun ma'naviy ham ruhan ikkala tomonning tayyor bo'lishligi, ikkala oila ustunlarining mas'uliyatni birgalikda olishlari lozimligi qayd etiladi. Sruf va uning hamkasblari tomonidan bolalar guruhlarida xulq-atvor, kognitiv rivojlanish hamda tengdoshlar bilan muloqatida sezilarli farqni aniqlashgan. 18 oyligidan doimiy mehr-muhabbatga ega bo'lgan bolalar ko'proq ishtiyoq, qat'iyatlilik va qo'shma tadbirlarga tayyorgarlikni namoyon etishgan. 2 yoshida o'yinchoqlar bilan faol munosabatda bo'lishgan, tengdoshlari bilan muloqatda ko'proq bo'lishganlari aniq bo'lgan. Demakki biz bola bilan ota-onaning hissiy-emotsional yaqin bo'lishi bu bola kelajakdagi yosh bosqichidagi psixologik rivojlanishining yaxshi o'tishi bilan kechishini ko'plab tadqiqotchi olimlarning ishlaridan bilsak bo'ladi. Bolalarda beparvolik va yoqtirmaslik tuyg'usini kuchaytiradigan har qanday holat bolada mustaqillikni yo'qotishga, ijtimoiy muhit bilan hamkorlik qila olmaslikka olib keladi. Ijtimoiy qiziqish Adler tomonidan insonning ruhiy sog'lig'ining barometridir. Uning kam rivojlanganligi esa nevrozlarni sabablari bo'lishlarini qayd etadi. A. Adlarning fikriga ko'ra, ona va ota o'rtasidagi munosabatlar bolaning ijtimoiy hissiyotining rivojlanishiga (asosan, bolalarning ijtimoiylashuviga) juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, baxtsiz nikoh bo'lsa, bolalarda ijtimoiy qiziqishni rivojlantirish imkoniyati kamayadi. Agar xotin eriga hissiy yordam ko'rsatmasa va o'z his-tuyg'ularini faqat bolalarga bag'ishlasa, ular azob chekishadi, chunki haddan tashqari chegaralanish ijtimoiy qiziqishni susaytiradi. Agar er xotinini ochiq tanqid qilsa, bolalar ikkala ota-onaga bo'lgan hurmatini yo'qotadilar. Agar er va xotin o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, bolalar ota-onalardan biri bilan boshqasiga qarshi birlashishni boshlaydilar. Ushbu o'yinda bolalar oxir-oqibat yutqazishadi: ota-onalari o'zaro mehr-muhabbat yetishmasligini namoyish qilganda, ular muqarrar ravishda ko'p narsani

yo'qotishadi. Keyinchalik bolaning keyingi yosh davrlaridagi psixologik rivojlanishga o'z ta'sirini o'tkazishini ayrim manbaalarda ham ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy hayot oiladagi munosabatlarning o'zgarishi, oilada hissiy iliqlikning yetarli emasligi sharoitida o'smirlik yoshida ham o'zini-o'zi tushunishning normal rivojlanishi buzilishi mumkin. Faoliyat hamda harakatni tartibga soluvchi shaxsning o'zini-o'zi anglash tushunchasining rivojlanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Shunday qilib ota-onaning bolaga bo'lgan munosabatining qanday bo'lishi bolada o'zlikni anglash va shu bilan bog'liq kognitiv rivojlanishga, ijtimoiy kirishishga bog'liq bo'ladi. O'smir bolalarning shaxsiy tarkibini uyg'unlashtirish, hissiy noqulayliklarni kamaytirish va shaxslararo munosabatlarni normallashtirishga qaratilgan psixologik ta'sir samaradorligini ta'minlash aynan maktabgacha yosh davridan biz bola rivojlanishiga ahamiyat berishimiz lozim. Ushbu davrdan onalik hamda otalik mehrining yetishmasligi bolaning kelgusi rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'smirning o'ziga past bahosi, kattalar, tengdoshlar bilan munosabatning pasayishi, agressivlik, tajavuskorlik va qoniqmaslik kabi salbiy hislarining rivojlanishiga olib keladi. Ona bola uchun ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi va o'zini havfsiz his etuvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Bolaning asosiy va ba'zan yagona mehr-muhabbat obyekti onadir, keyinchalik aniq tuzilgan va ma'lum bir tarzda bir qator kichik ob'ektlar (ota, aka-uka va boshqalar) hisoblanadi. Ota ham o'z o'rnida bola rivojlanishi uchun muhim ammo aksariyat otalar butun dunyoda onalarga nisbatan kam vaqt birga bo'lganligi bois, otalar onalar orqali bola bilan bilvosita aloqada bo'lishadi. Ammo ana o'sha kam bo'lsada muntazam farzand bilan munosabatda va muloqatda bo'lish bola bilan ham ota ro'li sifatidagi hissiy bog'liqligini o'rnatadi. Olimlarning bir qancha tadqiqotlarida muntazam ota ro'lining bola bilan birga bo'lishligi otaning bola bolaga hissiy yaqinligini mustahkamlanishiga sabab bo'lishi aks ettirgan. Bunday otalarda farzandalarining har qanday harakatiga va qiziqishiga e'tiborning yuqori bo'lishi kuzatilgan. Demakki otada ham onada ham bola bilan yaqin munosabatga kirishish ikkala ro'lga nisbatan bolad a mehr va ideal ota-ona mavqeining yuzaga kelishiga olib keladi. Bu davrda ota-ona o'zaro munosabatini aslo buzilmasligi, bunday salbiy munosabat farzandning ruhiy holatiga ta'sirini unutmasligi lozim.

Z. Oksananing ilmiy tadqiqot ishida maktab internatlarida katta bo'layotgan o'smir yoshdagi bolalardagi hissiy buzilishlar, akademik o'zlashtirishda ortda qolishning oldini olish maqsadida o'zini anglash jarayoniga ahamiyat berib, ong, o'zini-o'zi qadrlash, o'zini-o'zi tutish, munosib qadryatlar tizimini shakllantirish, oila ichidagi o'zaro ta'sirning hissiy tomonlarini qayta qurish, hissiy bezovtalik tufayli yuzaga kelgan hissiy noqulayliklarni yumshatish, hissiy barqarorlikni, o'zini –o'zi boshqarishga harakat qiladi. Bolaning o'sishi barcha bosqichlarida, xususan, kelajakdagi oilaviy munosabatlarida onaga bo'lgan munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki inson shaxsiyati ko'p jihatdan u o'zini o'zi tanitadigan odamlar bilan o'zaro munosabatlarida shakllanadi. (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar). Bola o'sadigan oilaviy munosabatlar uning yaqin odamlar bilan o'zaro munosabatlariga, shuningdek kelajakdagi oilada munosabatlarni shakllantirishga ta'sir qiladi. Onasiga bog'lanish turi er va

xotin o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir qiladi. Oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch- totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushuvi muhim rol o'ynaydi. O'zaro qovushishlarni shartli ravishda uchta tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Biologik qovushuv.
2. Psixologik qovushuv.
3. Sotsial (ijtimoiy) qovushuv.

Oilada er-xotinning o'zaro munosabatida aksariyat olimlar oila mustahkamligida psixologik hamda sotsiologik qovushuvning o'rni oiladagi nizolarning ijobiy bartaraf qilinishiga olib keladi. Ya'ni er-xotin o'rtasida ta'kidlab o'tilgan uchala qovushuv bu o'zaro munosabatlarning muvofiq kelishini hamda hurmatning shakllanishiga asos bo'ladi.

Oila a'zolaridan ota-onalardan tashqari buvi va buvalarning bo'lishi nevaralarining tarbiyasida ham muhim ro'l o'ynaydi. Aksariyat oilalarda ota-onaning ish bilan band bo'lishi, farzandlarning e'tiborsiz, hamda mehrsiz bo'lishiga olib keladi. Oila ustuni atamasi deganda biz oila istiqbollari va bolalar kelajagi uchun eng katta mas'uliyatni his etadigan va o'z zimmasiga oladigan oila a'zosini tushunamiz. Ajdod (odatda buvi, ba'zan buvisi) nabiralarga g'amxo'rlik qiladi, u va uning kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, tashqi tashkilotlar bilan o'zaro aloqada bo'ladi (vasiylikni ro'yxatdan o'tkazish, maktab, shahar hokimiyati bilan o'zaro aloqalar va boshqalar). Oila egasi bo'lgan buvi kasal bo'lib yoki vafot etgan taqdirda, nevaralar o'zlarini u yoki bu tarzda davlat qaramog'ida tutishadi, chunki oilaning boshqa a'zolari (onasi yoki noqonuniy otasi) bolaga g'amxo'rlik qilishga qodir emas.

Amerikalik psixologlarning ta'kidlashicha, buvilar va bobolarning vazifalari odatda ota-onalardan farq qiladi va ularning nabiralari va nabiralari bilan tutashish munosabatlari biroz boshqacha. Bobo va buvilar ko'proq ma'qullash, xushyoqish va hamdardlik ko'rsatishadi, qo'llab-quvvatlaydilar va nabiralarni kamroq jazolaydilar. Ba'zan bu munosabatlar ko'proq o'ynoqi va erkinroq bo'ladi. Shuning uchun ham farzandlarning aksariyati ehtiyojlarini qondirishga erkinlik bergan buvi va buvasini yaxshi ko'rishadi. Bizning ayniqsa o'zbek millatimizga xos bo'lgan milliy qadryatlarimizga asoslangan tarbiyani aksariyat oilada buvi va buvalar berishadi. Ularning o'gitlari, pand-nasihatlar hamda afsona va rivoyatlari, o'z hayotlaridagi yutuqlari-yu kamchiliklari haqida bilim berib, fikrlashga, to'g'ri yo'l tanlashga yordam beradi. Ammo ota-onaning ham oilada farzand kamolotida faqat boquvchi tayanch emas balki hissiy va irodaviy o'rnak bo'luvchi zot sifatida ham namunaligini bola bilishi darkor. Negaki ola ustunlarida ikki avlod bo'lsa har birining ideal timsoli bola uchun namuna bo'ladi. Aksariyat olimlarning ta'kidlariga ko'ra oilalarda bolaga ikki ustunning teng o'zaro mas'uliyatni tan olgan holda harakat qilmasligi bugunda nafaqat er-xotin o'rtasidagi nizo balki yana farzandlar bilan kelishmovchiliklarni, farzandning bir tomonni maqullovchi va hurmat

qilib ikkinchi tomonga qarshi chiqishiga olib kelmada. Shuning uchun ham oilada ota-ona oiladagi o'z o'zni va ota-onalik burchini ato etishi lozim. Bu jarayon esa bolada ularga nisbatan uni havfsiz his etishiga, bu holat o'ziga ishonch bilan harakat qilishiga ijtimoiy kirishimlilik hamda yaqinlikni uyg'otishiga olib keladi. Aytib o'tkanimizdek oilada oila a'zolarining barchasining o'z o'zni borki, bola psixik rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shu qatorda aka-uka va opa-singillik obrazlari ham muhim ro'l o'ynaydi ijtimoiy ko'nikmaning rivojlanishiga hamda xulq-atvorning shakllanishiga sibling munosabatda bolaning o'zni ham nihoyatda bola shaxsi xulq-atvorining shakllanishiga turtki bo'ladi. Ammo farzandlar o'rtasidagi farqning tabaqalanib qolmasligi ko'p jihatdan oila a'zolarining barchaga to'g'ri munosabatda bo'lishiga bog'liq. Teng va bir xil munosabat solishtirilmaslik bolada yaqinlariga nisbatan solishtirmaslik yoki o'zini boshqacha tutishda e'tiborni tortish holatlarining yuzaga kelmasligiga sabab bo'ladi. Bolada anglash tuyg'usining shakllanishi ko'p jihatdan oilaga bog'liq jarayon. Negaki bola juda ko'p vaqtini oilada oila davrasida o'tkazadi, ongli va ongsiz holatda qadryatlarini o'rganadi. Shuning uchun ham bolada ilk ustanovkaning tog'ri qo'yilishi oilada va uning a'zolariga birdek bog'liq hisoblanadi. Ilmiy ishimda bola shaxsining ijtimoiy yaqinlik darajasini aniqlashda oila va boshqa tashqi muhitni aks ettiruvchi R. Jelening 42 savolli metodikasi. Luskanovanning "O'quv motivi" metodikasini, Shuurning "Zinacha" metodikasini oldik. Ushbu bolaning ota-onalari hamda tarbiyachilarining shaxs xususiyatlarini baholovchi metodika olindi. Albatta bu holat ijtimoiy ta'sir vakillari bilan bog'liq bo'lganligi uchun o'tkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov, U. (2022). Gaybullayeva M. Yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirish. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 515-518.
2. Nikolaevich, U. P., & XXX, S. A. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145.
3. Yusupov, U. (2022). Ergasheva M. Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 442-445.
4. Юсупов, У., & Ермаматова, Г. (2022). Deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 448-450.
5. Yusupov, U., & Baxtiyorova, M. (2022). Ijtimoiy gender stereotiplar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 452-455.
6. Salim o'g'li, Y. U. (2022). PSIXOLOGIK AXBOROT XAVFSIZLIGI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 66-72.

7. Umidjon, Y., & Muhlisa, G. A. (2023). O'ZBEK XALQINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 53-59.
8. Umidjon, Y., & Muhlisa, G. A. (2023). BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 29-34.
9. Umidjon, Y., & Dilyora, A. (2023). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENCE. Conferencea, 89-93.
10. Umidjon, Y., & Ibrohim, O. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSI PSIXIK RIVOJLANISHIDA O'ZINI-O'ZI ANGLASHNING AHAMIYATI. Conferencea, 83-88.
11. Abdunazarova, S., & Yusupov, U. (2023). THE ROLE OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PERSONAL PERCEPTION OF A PRESCHOOL CHILD. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, (Special Issue), 139-144.
12. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).
13. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA-OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
14. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.
15. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.